

G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATIDA FALSAFIY TERANLIK VA BADIY MUKAMMALLIK

M.Do'smatova

Kosonsoy tuman I son kasb hunar maktabi
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yorqin vakili G'afur G'ulom va uning betakror she'riyat olami xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, she'riyat, proza, ijod, poeziya, falsafiy teranlik.

Аннотация: В этой статье даны размышления о Гафуре гуламе, ярком представителе узбекской литературы, и его уникальном мире поэзии.

Ключевые слова: литература, поэзия, проза, творчество, поэзия, философская глубина.

Annotation: this article presents ideas about the brilliant representative of Uzbek literature Ghafur Ghulam and his unique world of poetry.

Keywords: literature, poetry, prose, creation, poetry, philosophical perspiration.

KIRISH

XX asr jahon adabiyotida katta o'zgarish va yangilanishlar davri bo'lganligi ma'lum. Buning ijtimoiy, siyosiy va madaniy sabablari ko'pchilik olimlar tomonidan o'rganilmoqda. O'tgan yuzyillikda, ayniqsa, she'riyatda bashariyat qismati, inson dardidan so'ylovchi, chuqur mazmun, teran falsafaga yo'g'rilgan nodir asarlar yaratilganini alohida qayd etish lozim. Xususan bu davrda olam va odam, hayot va o'lim, urush va tinchlik kabi abadiiy muammolar, insoniyat taqdiri, umr mohiyatidan babs etuvchi falsafiy, badiiy, intellektual lirika takomil topdi.

XX asr o'zbek she'riyati, jahon adabiyoti mezonlaridan turib qaralganda ham, juda katta, mutlaqo o'ziga xos poeziya: dunyo miqiyosida yaratilgan lirika durdonalari bilan bo'ylagushlik sara asarlar unda ko'plab topiladi. Cho'lponning ijtimoiy ruh bilan yo'g'rilgan she'riyati, Usmon Nosirning otashin bitiklari, Mirtemirning xalqona manzumalari, G'afur G'ulom ning falsafiy teran she'rlari, Hamid Olimjon jo'shqin lirikasi kabilar fikrimizga dalildir. Bu qatorni hali ko'plab davom ettirish mumkin. Ulardan biri noyob istedod sohibining bitiklari bilan tanishish barchani mamnun qilib kelmoqda. Shunday iste'doddlardan biri bu – G'afur G'ulom va uning she'riyat olamidir.

Nodir iste'dod sohibi, akademik, faylasuf shoir, nosir G'afur G'ulom ijodiy yo'lining assosini o'z qalbiga ishonib yashash, ijod etish va e'tiqod butunligi tashkil etadi. Shoir hayoti, ijodining qimmati, qadri doimo adabiyotshunosligimiz va tanqidchiligidizning diqqat markazida bo'lib kelgan. Uning ijod namunalari 30-

yillardayoq maktab va Oliy o‘quv yurtlarining dasturlaridan o‘rin olganligi, hozirgacha mustaqilligimizni mustahkamlash, zamondoshimiz badiiy-estetik didini o‘stirishga xizmat qilib kelayotganligi beziz emas.

G‘afur G‘ulom hayoti va ijodi O.Sharafiddinov, Oybek, H.Olimjon, H.Yoqubov, S.Mamajonov, M.Qo‘shjonov, N.Karimov, O.Sharafiddinov, N.Shukurov, B.Nazarov, A.Akbarov, U.Normatov N.Vladimirova, S.Mirvaliev, S.Qosimov, B.Imomov, Sh.Yusupov, Q.Yo‘ldoshev, A.Rasulov, H.Boltaboev va boshqa o‘nlab olimlarning diqqatini jalb qilgan. Bular orasida professor Homil Yoqubovning G‘afur G‘ulom hayoti va ijodini tadqiq etuvchi adabiy-tanqidiy ocherki ayniqsa, diqqatga sazovordir. Kitobda atoqli o‘zbek shoiri sho‘ro tuzumi bilan hamqadam o‘sib-ulg‘aygan, shu voqelikdan hayotiga mazmun olib, ijodiy imkoniyatlarini kengaytirgan qalamkash sifatida o‘rganiladi. G‘afur G‘ulomning o‘ttiz besh yillik ijodiy yo‘li siyosiy-mafkuraviy nuqtai nazardan tahlil etiladigina emas, balki shoir komfirqa XX qurultoyi qarorlarini “jangavor ish programmasi” qilib olishga da vat etiladi. Shunga qaramasdan, olim G‘afur G‘ulom ijodining ichki takomilini kuzatish, asarlarining poetik tili va xalqchillagini aniqlash, istiqbol rejalarini pragnoz qilishga intilgan. G‘afur G‘ulom ijodini o‘rganishga akademik Salohiddin Mamajonov barakali hissa qo‘shdi. Uning “Shoir va zamonaviylik”, “G‘afur G‘ulom prozasi”, “Uslug jilolari” kabi yirik monografik yo‘sindagi tadqiqotlarida shoir ijodi g‘oyaviylik bilan bir qatorda badiiy barkamollik talablaridan ham nazardan o‘tkaziladi. G‘afur G‘ulom she’riyati siyosiy-falsafi ruhi, ko‘tarinki pafosi, hozirjavob va dolzarbliji, xalqchilligi va gumanizmi jihatidan qadrlanadi. Uning ijodi mumtoz folklor, Sharq she’riyati, rus adabiyoti kabi uchta ildizdan oziqlanishi haqidagi tezisga asoslaniladi. G‘afur G‘ulomning qirq yillik ijodiy yo‘lini kuzatgan adabiyotshunos uni “o‘zbek poeziyasining oqsoqoli”, -deb ta’riflaydi.

ASOSIY QISM

Nodir iste’dod va tug‘ma iqtidor sohibi G‘afur G‘ulom – yirik faylasuf shoir, mohir nosir sifatida mashhur. U O‘zbek adabiyoti xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan. G‘afur G‘ulom o‘zbek adabiyotining faxri, xalqimizning iftixoridir.

Shoir hayot haqiqatini falsafiy teranlik, ko‘tarinkilik va jo‘shqinlik bilan kuylaydi. Ana shuning uchun ham mashhur adib A.Fadeev: “G‘afur G‘ulom o‘zbek she’riyatining eng o‘ziga xos va misilsiz hodisalaridan biridir... eng latif lirikadan oratoriyagacha – uning diapozoni ana shunday. G‘afur G‘ulom she’rlari hamisha zo‘r fikr va teran tuyg‘ular bilan sug‘orilgan. U tom ma’nosи bilan chinakam va katta shoirdir”¹, - deb yozgan edi.

G‘afur G‘ulom she’riyati lirik tuyg‘ularga, chuqur hissiyot tasviriga, yangi va ko‘lamdor fikrlarga, falsafiy - badiiy umumlashmalarga boy. G‘afur G‘ulom o‘z

¹ Фадеев А. За тридцат лет. — Москва: «Советский писатель», 1957, стр. 320

uslubiga, o‘z ovozi va o‘z so‘ziga ega bo‘lgan, she’riyatda ajoyib maktab yaratgan ulkan san’atkordir. G‘afurona she’r yozish zamонни mag‘rur kuylash, ona Vatanni va xalqimizni faxrlanib ulug‘lash, do‘stlik va tinchlik ishiga sadoqatni falsafiy misralarda tarannum etish demakdir.

Shoir Maqsud Shayxzoda o‘z hamkasb do‘sti G‘afur G‘ulom uslubi haqida fikr yuritib quyidagilarni qayd etgan edi: Hamid Olimjon uslubida notiqlik priyomlari, Oybek uslubida og‘ir (teran) falsafiy tafakkur, G‘ayratiy uslubida shioriy publististik motivlar yetakchilik qiladi. Bu usullar G‘afur G‘ulom ijodida ham mavjud. Lekin tobora o‘sish jarayonida uning o‘z yorqin uslubi shakllanib boradiki, bu holat uning she’rlarini, hatto uning imzosini ko‘rmasangiz ham darrov tanib olishga imkoniyat tug‘diradi. Uning lirkasida chinakam hayajon bilan mutafakkirona mulohazalarning, jo‘shqinlik bilan ruhiy mayin kechinmalarning, g‘azab va shavqatning, humor va alamning, notiqlik bilan rassomlikning sintezini payqash qiyin emas“.

G‘afur G‘ulom ijodining bunday o‘ziga xos nodir xususiyatlari shoir yaratgan obrazlar olamida, g‘afurona mavzularda va poetic mazmunda, rang- barang shakllarda, badiiy til va uslubda namoyon bo‘ladi. Zotan, G‘afur G‘ulom poetic uslubini belgilovchi asosiy xususiyatlar – falsafiylik va novatorlik, tezkorlik va hozirjavoblik, tarixiy aniqlik, milliylik bilan baynalmilallikning uyg‘unligi, xalqchillik va badiiy mukammallikdan iboratdir.

G‘afur G‘ulom Toshkentda dehqon oilasida tug‘ildi. Bo‘lajak shoir to‘qqiz yoshga kirar-kirmas og‘ir kulfatga duchor bo‘ldi: 1912-yilda otasi G‘ulom Oripov vafot etdi. Natijada, oilaning moddiy muhtojligi kuchayadi. G‘afur G‘ulom keyinchalik ana shu yetimlik va muhtojlik kunlarini eslab yozgan edi:

Yetimlik nimadir bizlardan so‘ra,
O‘ninchи yillarning sargardonligi.
Isitma aralash, Qo‘rqinch tush kabi
Xayol ko‘zgusidan O‘chmaydi sira.
Men yetim o‘sganman, Oh, u yetimlik...
Voy bechora jonim, Desam arziydi.
Boshimni silashga Bir mehribon qo‘l,
Bir og‘iz shirin so‘z - Nondek azizda.

G‘afur G‘ulom ning bolalikdagi bu achchiq taqdiri uni ne ko‘ylarga solmagan, ne-ne mashaqqatlarga duchor qilmagan deysiz! G‘afur G‘ulom yoshlik chog‘larini xotirlab, o‘z tarjimai holida: “Kirmagan eshigim, qilmagan xizmatim, tutinmagan ishim qolmadi. Etikdo‘z kosibga shogird tushdim, bo‘lmadi. Birovning aravasini minib qishloqqa qatnadim, bo‘lmadi. Sariboy deganning olma bog‘ida qo‘riqchilik qildim,

bo‘lmadi. Keyin tunuka qirqib, mayda chega mixlar yasay boshladim: tuzuk edi, keyin mazasi qochdi, tirikchilik o‘tmaydigan bo‘ldi”², — deb bejiz yozmagan, albatta.

Hayotning bunday og‘irliklariga qaramay, G‘afur G‘ulom yoshligidanoq ilm olishga intildi, badiiy adabiyotga, xususan, she riyatga juda qiziqdi. Bu qiziqishning paydo bo‘lishi va kuchayishida oilaviy muhitning ta’siri katta bo‘lgan. «Otam adabiyot bilan juda qiziqar ekan, uyimizga o‘zbek shoirlari va hattotlaridan Xislat, Shomurod kotib va boshqalar kelib yurganini es-es bilaman, Farg‘ona vodiysidan keladigan shoirlar ham: Muqimiy, Tosh xo‘ja Asiriy, Furqat, Muhyi va boshqalarning biznikiga ko‘p kelganini aytadilar. Otam «Mirzo» va «G‘ulom» taxalluslari bilan talay she’rlar yozgan... Amakim ham she’rlar yozar edi. Uning “Bayozi Mirzo” degan kitobi 1913-yilda Toshkentda “G‘ulomiya” bosmaxonasida bositgan”³, — deb qayd etgan edi G‘afur G ulom.

G‘afur G‘ulom 1916-yilda bir muddat rus-tuzem maktabida o‘qidi, sakkiz oylik muallimlar tayyorlash kursini bitirdi. Yangi tashkil etilgan maktablardan birida avval o‘qituvchi, 1923-yildan boshlab esa internat mudiri bo‘lib ishladi. Shoirning birinchi she’ri ana shu internatda 1923-yilda tug‘ildi. “Shu kecha o‘z yetimligim, boshimdan kechirganlarim va shu yetim bolalar ahvoli, xalqimizning shu go‘daklarga g‘amxo‘rligi to‘g‘risida she’r yozdim. Shu she’rimni birinchi she’rim desam bo‘ladi”⁴.

G‘afur G‘ulom 20-yillar boshida adabiyot maydoniga kirib keldi va o‘z she’rlari, hikoya, ocherk va felyetonlari bilan gazeta-jurnallarda ko‘rina boshladi. G‘afur G‘ulom 1923-yildan to 1930-yilgacha besh yuzga yaqin she’r, hikoya, ocherk, doston, felyeton yozgan. Demak, u dastlabki davrdayoq sermahsul va ko‘pqirrali ijod sohibi bo‘lgan. To‘g‘ri, yosh ijodkorning bu davrda yaratgan ko‘p asarlarida hayot haqiqati chuqur badiiy umumlashma darajasida berilmas, ularning aksariyati badiiy jihatdan ancha bo‘sh edi. Binobarin, shoir bu yillarda o‘qish, o‘rganish va izlanish — badiiy asar yaratish «siri»ni egallah davrini boshidan kechirdi. Demak, shoirning ijodiy kamolotga erishishi o‘z-o‘zidan va osonlikcha bo‘limgan. Bunda uning xalq hayotini, so‘z san’ati «sir»larini sinchiklab o‘rganishi, o‘z badiiy mahoratini oshirish ustida tinmay ishlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Vaqt o‘tishi bilan G‘afur G‘ulom haqiqiy, ulkan shoir bo‘lib yetishdi. U akademik shoir darajasiga ko‘tarildi va jahon miqyosida shuhrat qozondi.

G‘afur G‘ulom ning ijodiy o‘sishida matbuotning roli katta bo‘ldi. Shoir turli yillarda «Sharq haqiqati», «Kambag‘al dehqon», «Qizil O‘zbekiston» gazetalarida, «Yer yuzi», «Mushtum» jurnallarida ishlagan, o‘z asarlari bilan ularda faol qatnashgan. G‘afur G‘ulom o‘z ijodining rivojlanishida matbuotning roli haqida fikr yuritib: “Gazetaning mening gardanimda bo‘lgan haqi ustozning shogirdda bo‘lgan haqidan

² Yoqubov H. G‘afur G‘ulom. — T.: O‘zadabiynashr, 1959, 66-bet.

³ Adabiyotimiz avtobiografiyasi. — T.: 1973, 171—173-betlar

⁴ O‘sha kitob. 178-bet.

ortiqdir. Gazeta men o‘qigan oliy maktablardan biri va birinchisi bo‘ldi. O‘zimda bor fazilatlardan ko‘p qismi uchun gazetadan va uning atrofida uyushgan, mendan ko‘ra peshqadamroq sog‘lom jamoadan juda ham minnatdorman”⁵, — degan edi.

XULOSA

G‘ofur G‘ulomning dunyoqarashi va badiiy didining shakllanishida Vladimir Mayakovskiy asarlari katta ta‘sir ko‘rsatgan. G‘ofur G‘ulom o‘zining maqolalaridan birida shunday yozadi: —Men... rus mumtoz ijodkorlarini bilaman va ularni sevaman va ularning ko‘plab asarlarini ona tilimga tarjima qildim. Lekin —men uchun vazn, lug‘at, timsol, she‘rning ohang tuzilishi sohalarida eng serqirra va cheksiz imkoniyatlarni ochgan Mayakovskiyning shogirdiman, deyishni istayman. Mayakovskiy satirasidagi darg‘azab, tanqidiy kinoya, lirkasidagi bag‘oyat ulkan tuyg‘u kuchidan tashqari, men o‘zimda... uning usullarining dovyurak notiqlik kuchini, metaforalar jasorati, mubolag‘alar ifodaliliginini jamdashga harakat qildim. Hatto, usulli, ohangli va ma‘no ifodaliligini oshiruvchi she‘r qurilishidan ham o‘zbek she‘r tuzimida foydalanishimga to‘g‘ri keldi. Bular G‘ofur G‘ulomning ko‘plab she‘rlarida namoyondir, masalan: —“Turksib yo‘llarida”, “Ona yer”, “Yashasin, tinchlik!”. G‘ofur G‘ulom ijodining urushdan keyingi davri o‘zbek adabiyoti rivojida muhim o‘rin egalladi. Urushdan avvalgi davrlarda uning she‘rlarida urushdan oldin ular tomonidan yaratilgan narsalarni qo‘lda qurol bilan himoya qilayotgan, yerda tinchlik istayotgan odamlarning ichki kechinmalari va o‘y-xayollari tasvirlangan. Shoirning urushdan keyingi davr lirkasi uning urush yillar lirkasining mantiqiy davomi va rivoji hisoblanadi, —Unutma, Vatan seni kutmoqda! va —G‘alaba bayrami she‘rlari — shoirning mazkur ikki ijodiy davrining bog‘lovchi halqasi kabitdir. G‘afur G‘ulom ning pedagogik qarashlari bugun milliy pedagogikamiz merosimiz tarkibiy qismiga aylandi. Unda bolalar xulqidagi zararli odatlarni bartaraf etishga oid fikrlar haqida o‘tgan asrning 20 – yillaridayoq bong urilgan edi. Adib ijodiga nazar tashlar ekanmiz, u o‘z davrida bolalar orasida zararli odatlarning kuchayib borayotganligidan aziyat chekadi.U zararli odatlarning kelib chiqish sabablarini bolalar yashayotgan muhitning o‘zidan izlaydi. Uning fikricha, — “maorif tizimi pillapoyalarida o‘tirgan mansabdorlarning aybi bilan minglab bolalar umumta’limga jalb etilmay qolmoqda”

... Maorifning vakillari Qalandarday tentirab,

Eshiklarni qoqadi – Rasmiyat Faqat,...

... Minglab-minglab Ahmadjon

Rasmiyatdan ishga o‘tish Muddatiga boqadi...

Ma’lumki, o‘tgan asrning 20-30 yillarida milliy nizolar, urush, qurg‘oqchilik tufayli sobiq sho‘rolar davlatida yuz minglab bolalar boqimsiz qolgan edi. Natijada mamlakatda bolalar qarovsizligi avjiga chiqdi. Maktab, oila nazoratidan chetda qolgan

⁵ G‘afur G‘ulom. Asarlar. 8-tom. — T.: 1976, 25-bet.

minglab bolalar zararli odatlarni —ko‘cha maktablaridan o‘rganib oldilar. Bolalar qonunbuzarligining g‘oyat kuchayishi davlat va keng jamoatchilikni tashvishga soldi. Shuning uchun shoir bunday boqimsiz bolalar taqdiridan tashvishlanib, “Taklif qilaman” she’rida shunday degan edi:

Shu yoshgina o‘spiringa qarangiz:

“Yosh boshidan kashanda
Qanday orsiz, sharmanda,
Bobosiday ko‘ksovlanar,
Ko‘p esiz!” –deyarsiz
...Haligacha

Maktab, o‘qish unga yot...

G‘afur G‘ulom umrining so‘nggi nafasigacha ijod etdi, mehnat qildi. Uzoq yillar davomida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo‘lib ishladi. Badiiy asarlar bilan bir qatorda ko‘plab ilmiy maqolalar yozdi, tarjimalar qildi. O‘zining asarlari ham o‘nlab tillarga o‘girildi.

Shunday qilib, G‘afur G‘ulom xalq hayoti, yangi voqelik bilan mustahkam aloqada bo‘lgan holda samarali ijod qildi. Adabiyotimizni o‘lmas va mangu unutilmas ajoyib she riy va nasriy asarlar bilan boyitdi. G‘afur G‘ulom ning yangi o‘zbek adabiyotini yaratish, boyitish va taraqqiy ettirish sohasidagi buyuk xizmatlari xalq va davlat tomonidan munosib taqdirlandi. Shoir 1943-yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasiga haqiqiy a‘zo qilib saylandi. 1963-yilda unga «O‘zbekiston xalq shoiri» degan yuksak faxriy unvon berildi.

Hozirgi davrda bir qancha jamoa va davlat xo‘jaliklari, institut, nashriyot, metro bekti, go‘zal bog‘ va obod ko‘chalar, kutubxona va maktablar G‘afur G‘ulom nomi bilan atalmoqda. Mustaqil O‘zbekiston hukumatining qaroriga muvofiq 2003-yilda akademik shoir G‘afur G‘ulom tavalludining 100 yilligi mamlakatimizda zo‘r tantana bilan keng nishonlandi. G‘afur G‘ulom asarlari mamlakatimizdagi, shuningdek, chet ellardagi ko‘pgina tillarga tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etilmoqda.

G‘afur G‘ulom ijodini ilmiy asosda o‘rganish, tadqiq etish sohasida ham yurtimizda talay ishlar qilingan. H.Yoqubovning “G‘afur G‘ulom” (1959), S.Mamajonovning “Shoir va zamonaviylik” (1963), “G‘afur G‘ulom prozasi” (1966), “Uslub jilolari” (1972), N.Shukurovning “G‘afur G‘ulom ning lirik poeziyadagi mahorati” (1966), A.Akbarovning “Shoirning hayoti” (1973) nomli kitoblari, I.Sulton, V.Zohidov, L.Qayumov, O.Sharafiddino, U.Normatov, B.Imomov, O.Saidov, A.Oripov va boshqalarning ilmiy maqolalari ana shundan guvohlik beradi.

Mustaqillik davrida G‘afur G‘ulom ijodini tahlil etish sohasida muayyan ishlar qilindi. Keyingi vaqtarda “G‘afur G‘ulom” (Naim Karimov), “Akademik G‘afur G‘ulom” (Aziz Qayumov), “G‘afur G‘ulom olami” (B.Nazarov),

“G‘afur G‘ulom zamondoshlari xotirasida”, “G‘afur G‘ulom Samarqandda” kabi risola va maqolalar to‘plamlari yaratildi

ADABIYOTLAR:

1. Фадеев.А. За тридцат лет. — Москва: «Советский писатель», 1957, стр. 320.
2. Yoqubov H. G‘afur G‘ulom. — T.: O‘zadabiynashr, 1959, 66-bet.
3. Adabiyotimiz avtobiografiyasi. — T.: 1973, 171—173-betlar
4. G‘afur G‘ulom. Asarlar. 8-tom. — T.: 1976, 25-bet.
5. Yoqubov.H. G‘afur G‘ulom (hayoti va ijodi). Toshkent. Badiiy adabiyot.1959.
6. Mamajonov.S. Shoir va zamonaviylik. Toshkent. Fan. 1963.